

**JIZZAX VA SIRDARYO (SOBIQ TOSHKENT VA SAMARQAND)
VILOYATLARIDA YANGI YERLARNI O‘ZLASHTIRISH VA AHOLINI
KO‘CHIRISH JAROYONLARINING O‘RGANILISH TARIXI VA
TARIXSHUNOSLIGI**

Uralov Xaitboy Abdujabborovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy tarix kafedrası o‘qituvchisi

Tel: 94-161-62-77

Hozirgi Jizzax va Sirdaryo viloyatlarning katta qismini Mirzacho‘l cho‘li egallagan. Mirzacho‘l cho‘lida suv manbalarining kamligi bu hududda aholi maskanlarining tarkib topishiga imkon bermagan. Biroq, hududning janubiy qismida Sirdaryo va Jizzax viloyatlarning dasht, tog‘ oldi va tog‘lik hududlarida aholi juda qadimdan yashaganligini ko‘rsatuvchi yodgorliklar shakllangan.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlari Qadimgi Ustrushonaning asosiy qismini tashkil etadi. “Avesto”da turlar yoki danay- turlari⁷⁷, xaomu pishiruvchi buyuk “tur”lar⁷⁸ va saka xaumovarkalar haqida eslatilgan⁷⁹. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida “Syg‘d ortida Yaksart daryosi bo‘ylab barcha kamonda jang qiluvchilar orasida eng mohiri va bexato otuvchilari hisoblangan saklar yashaydi” degan ma‘lumotlar berilgan⁸⁰. Ularni Sirdaryoning o‘rta oqimi, jumladan Sirdaryo chap sohillarida yashagan aholining qadim ajdodlari deyishimiz mumkin.

Ustrushona (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari aholisi) xo‘jaligi va yashash tarzi haqidagi ma‘lumotlar IX-X asrlarga taalluqli arab geograflarining asarlarida berilgan. Hozirgi Jizzax va Sirdaryo vohasi (Shimoliy va shimoliy-g‘arbiy Ustrushona) Ibn Havqal asarlarida, “... ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy” deb ta‘rif beradi⁸¹. Unda Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona shaharlari va Bashog‘ar, Masxo, Barg‘ar, Farg‘ontom, Mink, Baskan va Isbikat rustoqlar mavjudligi ta‘kidlangan⁸². Bu davrda voha ko‘p sonli uylari, bozorlari, bog‘lari, musofir va savdogarlar uchun karvonsaroylari bilan mashhur bo‘lgan.

⁷⁷Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра. Archiv Orientalni, XXIV, 1956, №1.17с.

⁷⁸ Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авеста ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008 – Б. 71.

⁷⁹ Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней центральной азии. – Самарканд, 2009. – С. 47-49.

⁸⁰ Страбон... VII, 3,12.

⁸¹ Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин).

– Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б. 70.

⁸² Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал –ард... –Б: 70

Mintaqaning qadim tarixi bilan bog'liq ushbu yodgorliklar asosida tarixiy arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Ularni o'rganish dastlab, Turkiston havaskorlarining arxeologik to'garagi (THAT) a'zolari tomonidan boshlangan. XX asrning 40-yillaridan boshlab hozirgi Tojikiston hududida olib borilgan izlanishlar alohida ahamiyatga ega⁸³. A.K. Mirboboyev, R.Z. Avzalov, S.SH. Marafiyev kabi arxeologlar tomonidan chorvadorlar tarixiga oid mozorqo'rg'onlar ham ochib o'rganilgan⁸⁴. Biroq, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududidagi yodgorliklarda keyinroq boshlangan.

O'tgan asrning 70-90 yilarida Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududida O'.A.Alimov, R.A. Badaxov, M.H. Pardayev, A.A. Gritsina, L.M. Sverchkov kabi arxeologlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Ushbu olimlardan Muxtor Pardaeв Qaliyatepa shahar yodgorligi, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Rasulboyqultepa kabi qishloq makonlarini o'rgangan⁸⁵. A.A. Gritsina tomonidan Sirdaryo viloyati hududidagi Sag'onoq, Ulkan-Soyliq, Saritepa va Kindiktepa qabr qo'rg'onlari ochib o'rganilgan⁸⁶. Shuningdek, ushbu olim tomonidan Zomin tumani hududidagi yodgorliklar o'rganilgan⁸⁷. B.B. To'ychiboyev tomonidan Sirdaryo viloyatining eng qadimgi davr tarixi, antik davr tarixiy geografiyasi, ilk o'rta asrlar shahar va rustoqlarnig joylashish o'rni o'rganilgan⁸⁸. S.Qudratov tomonidan Nurtepa madaniyati va

⁸³ Ранов В.А. Салтовская Е.Д. О работах Уратюбинского отряда в 1959 г. // ТИИ АН. Тадж. ССР. Т. XXXIV. – Душанбе, 1961. – С. 108-128; Негматов Н.Н., Салтовская Е.Д. О работах Ходжентского-Уструшанского отряда в 1960 г. // ТИИ АН. Тадж. ССР. Т. XXXIV. – Душанбе: Дониш, 1962. – С. 69-89. Негматов Н.Н. Историческо-географическое очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э // МИА. –М., 1953. –№ 37., Негматов Н.Н., Е.Д.Салтовская, Т.П.Кяткина. Изучение погребальных памятников кочевников на территории Уструшаны // АРТ. Сталинабад, 1961. – № VI (1958г), –С. 137-154; Лившиц В.А. Юридические документы и письма (Согдийские документы с горы Муг. Вып. 2. – М.: Наука, 1962. – С.95; Пулатов У. История изучения Чиль-Худжры // Сообщения Государственного республиканского объединенного музея. Вып. 4. – Душанбе, 1966. – С. 59-60.

⁸⁴ Марафиев С.Ш., Н.А Москаленко Архаические находки из Ходжаи Соф // АРТ. Вып. 21(1981).. – Душанбе, 1988. –С. 73-88., Мирбобоев А.К. Раскопки Куркатских склепов // АРТ. – Душанбе, 1980. –№ XV –С. 295-303., Мирбобоев А.К.. О работах на Куркатских склепов в 1978 г // АРТ. – Душанбе: 1984. -№ XVIII, –С. 195.

Авзалов Р.З, Самойлик П.Т. Майдонисайские погребения // АРТ. – Душанбе: 1982. –№ XVI, –С. 327-330.

⁸⁵ Пардаев М.Х. Шимоли-ғарбий Уструшона кишлок қурилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // ЎММТ. 28 сон. – Самарканд, 1997. – Б. 142-148; Пардаев М.Х., Қалиятепа шаҳар ёдгорлик ва унинг стратиграфиясига доир айрим мулоҳазалар // ЎММТ 31- сон. – Самарканд, 2000. – Б. 119-130. Пардаев М.Х.Қадимги Жиззах воҳасида ўтроқ деҳқонлар ва кўчманчи чорвадорлар маданияти // ЎММТ 33 сон. – Тошкент, 2002. – Б. 146-153

⁸⁶ Грицина А.А. Изучение курганов в Сырдарьинской области // ИМКУ. Вып. 28. – Самарканд, 1997. – С.75-78; Ўша муаллиф. Уструшанские были. – Ташкент, 2000. – С. 198, 205-206 Ўша муаллиф. Кочевники в Уструшане (на примере изучения курганов в Сырдарьинской и Джизакской областях) // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек, 2005. – С.186-195.

⁸⁷ Грицина А.А. Археологические исследования в бассейне Пшагарсая // ИМКУ. Вып. 36. – Самарканд, 2008. – С.116.

⁸⁸ Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б. 73-78; Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б. 73-78; Тўйчибоев Б.Б. Ўлка моддий маданияти тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2023. – 223 б; Тўйчибоев

ushbu madaniyatga mansub aholi uy-joylari, aholining shakllanish tarixi va migratsiyalar masallariga e'tibor qaratilgan⁸⁹.

L.M. Sverchkov tomonidan vohaning tog'li hududlarida bir nechta bronza davriga oid topilma joylar ham qayd etilgan⁹⁰. Zomin tumanidagi Mo'g'ol va Achchi qishloqlarida antik va ilk o'rta asrlarga oid mozor qo'rg'onlar tadqiq qilinmoqda⁹¹. Keyingi yillarda, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa, Achchi, Baxmalsoy, Mo'g'ol, Sayxonsoy, Chayonli, va Jelli g'uli mozor qo'rg'onlari o'rganildi⁹². Ularning barchasi ushbu viloyatlarning antik va ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Mavjud adabiyotlar tahliliga ko'ra, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati o'lkani bosib olgan paytdanoq boshlanganligi ko'rinadi⁹³. XIX asrning 70-yillaridan boshlangan paxta yakkahokimligini o'rnatish siyosati natijasida, 1900-uilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil сайin oshib borgan va birinchi jahon urushi arafasida 50 % ga yetgan. 1889 yildan 1916 yilgacha bo'lgan davrda Turkistonda Amerika navli paxta ekiladigan maydonlar 7 barobar kengayganligi ta'kidlanadi⁹⁴. Shunga mos ravishda, 1885 yilda paxta ekin maydonlar 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib 514,9 ming tanobga yetgan va 13 barobarga oshgan⁹⁵. O'z navbatida, Turkiston o'lkasida yangi yerlarni o'zlashtirish va bu yerlarga aholini joylashtirish bilan bog'liq masalalar tarixchilar tomonidan Rossiya imperiyasi davridayoq o'rganilib boshlangan⁹⁶. Rossiya imperiyasining Turkistonda rus xo'jaliklarining tashkil etilishi ham ana shu siyosatning amaldagi ijrosi edi.

Б.Б. Сирдарё ўлкаси қадимги ва ўрта асрлар даври тарихий географияси. – Тошкент, 2023. – 154 б; Тўйчибоев Б.Б. Сирдарё ўлкаси қадимги ва ўрта асрлар даври тарихий географияси. – Тошкент, 2023. – 154 б

⁸⁹ Кудратов С. Сирдарёдаги энг қадимги шаҳар // “Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақаларо сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)”. - Гулистон, 2016. – В. 103.

⁹⁰ Сверчков Л.М. Средневековый Пшагар и пещера Йеча // ОНУ, Вып. 11-12. – Ташкент, 1999. – С.78; Сверчков Л.М. История изучения древних выработок Узбекистана (краткий обзор) // ИМКУ. Вып. 35. –Ташкент, 2006. – С. 119.

⁹¹ Сверчков Л. М., Бороффка Н. Краткий обзор археологических и геофизических работ в Зааминском районе. Археологические исследования в Узбекистане 2021 год. Вып. 14. – Самарканд, 2023.– С. 129-130.


⁹² Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвдорлари маданияти (археологик манбалар асосида).–Тошкент: Fan va ta'lim. 2022. – Б. 33-62. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4/3- (100) сон. – Урганч, 2023. – Б.55-59. Тошбоев Ф.Э., Мамиров О.У. Сайхонсой мазорқўрғонлари // Ўзбекистон археологияси. 2- сон (25). –Самарқанд, 2021. – Б. 20-32; Тошбоев Ф.Э., Мамиров О.У., Тугалов Б.Б. 2021 йилда Чаёнли мазорқўрғонларида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 14- сон. – Самарканд, 2023. – Б. 151-156

⁹³ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. “Академия”, Тошкент, 2002. Б.3.

⁹⁴ А.Қодиров. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. Тошкент: 1998, 79-80 бетлар.

⁹⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.2. Тошкент, “Sharq”, 2010. Б. 78.

⁹⁶ Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Петроград, 1914; Курсиш А. Голодная степь. Очерк работ по орошению северо-восточной ее части. СПб., 1913; Булаевский В. Ф. Современное состояние Голодностепской ирригационной системы. Ташкент, 1922.



Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun Mirzacho'lni o'zlashtirish eng istiqbolli loyihalardan biri sifatida qaralgan. Shuning uchun XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sirdaryo daryosidan Mirzacho'l cho'liga qarab suv keltirish boshlangan⁹⁷. Mirzacho'lning tabiiy sharoiti va aholisi haqida 1870-yillarda Mirzacho'l orqali Farg'ona, Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga tashrif buyurgan amerikalik jurnalist Y.Skayler "daryo yaqinida eski kanal va ariqlarning izlari bo'lib, qachonlardir bu yerlarga ishlov berilgani haqida"⁹⁸, N.N.Leonova va N.I.Leonovlar, "Mirzacho'lda bir zamonlar adirlik oralig'idagi soylardan suvlar oqib, cho'l hududini ham sug'organi, asta-sekin suv kamayib, aholi tog' atroflariga va daryo qirg'oqlariga borib o'rnamashgani haqida ma'lumot bergan"⁹⁹. Mirzacho'lni tadqiq etgan V.F.Karavayev esa cho'l bag'ridagi oppoq, sho'r izlari hamda cho'l o'simliklari va ahyon-ahyonda uchraydigan chorvadorlar ovullari haqida yozgan¹⁰⁰. Boshqa manbalarda ham чўл ва даштликларда ба'зи bir turar-joylar bo'lganligi, aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganligi qayd qilingan. Rossiya imperiyasining agrar siyosati, sobiq sovet davlatining "paxta mustaqilligi" borasidagi ishlariga asos vazifasini o'tab, qishloq xo'jaligi sohasidagi bir tomonlama siyosatga keng yo'l ochib bergan. Tadqiqotlarda yozilishicha, Turkiston o'lkasida yangi yerlarni o'zlashtiri uchun aholini yashab turgan joylaridan turli xil sabablar bilan ko'chirish XX asrning 20-yillaridayoq boshlangan¹⁰¹. Bu siyosat XX asrning 30- va 40-yillari ikkinchi yarmida yanada faol amalga oshirilgan. Sovet davrida yaratilgan asarlardan N.Jabborov, E. Xojiyev, M. Vaxobov, N.Ergashev, A. Razzoqov, A. Boltayev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida XX asrning 50-60 yillaridagi ko'chirishlar bilan bog'liq masalalar yoritilgan¹⁰². Ushbu tadqiqotlarda asosan, urushdan keyingi yillarda yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Ba'zi asarlarda o'sha davrning haqiqiy manzarasini ochib beradigan katta hajmdagi ma'lumotlar tahliliy asosda, jadval va raqamlar bilan ham berilgan.

XX asrning 40-80- yillarida aholini ko'chirish bilan bog'liq manbalarda Mirzacho'l, Qarshi va Farg'ona vodiysidagi yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni, bu yerdagi irrigatsiya va melioratsiya masalalari, qishloq xo'jaligi rivojlanishini o'rganish doirasida tahlil

⁹⁷ Тутов А.В. История освоения Голодной степи. 1869-1917 гг. По материалам книги "Покорение Голодной степи", – Ташкент: "Узбекистан", 1976.– 47 с.


⁹⁸ Скайлер Ю. Туркестон: Россия Туркестони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат кайдлари. Кириш, инглиз тилидан қискартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлари муаллифи З. Саидбобоев. – Т.: O'zbekiston, 2019. – Б. 172-173.

⁹⁹ Леонова Н.Н., Леонов Н. И. Голодная степь (Историко-географический очерк). – Ташкент, 1957. – С. 73.

¹⁰⁰ Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград,1914.

¹⁰¹ Ботирова Б. Ўзбекистонда ўтказилган советларнинг аҳолини кўчириш сиёсати (1926-1941йй): Тарих фан.ном....дисс. автореф. –Тошкент, 2010.

¹⁰² Жабборов Н. Янги ерларни суғориш ва ўзлаштиришнинг иқтисодий проблемалари. –Тошкент: "Фан", 1969. – Б.132.; Ходжиев Э. Х. История орошения и освоения Голодной степи. –Ташкент: "Фан", 1975. –С.137-187.; Вахобов М., Эргашев Н. Руководство компартии Узбекистана освоением целинных земель. –Ташкент: "Узбекистан", 1985. – С.156.; Раззоқов А. Сув ва ҳаёт. – Тошкент: "Фан", 1991. – Б.152.; Болтаев А. Мирзачўл – Жиззах: ўтмиши ва бугуни (1900-2000 йиллар). – Тошкент: "Фан", 2007. – 226 б.



qilingan¹⁰³. Ushbu ma'lumotlar asosida qaraydigan bo'lsak, 1950-yil avgustiga qadar O'zbekistonda 1770 ta kolxoz o'rniga 752 ta kolxoz tashkil etildi. Yiriklashtirilgunga qadar har bir kolxozda o'rtacha 104 xo'jalik bo'lgan bo'lsa, tadbirdan so'ng 231 taga yetdi. 1954-yilda Surxondaryo viloyatidagi kolxozlar soni 1940-yilga nisbatan qariyb 8 baravar kamaydi, har bir xo'jalikda g'o'zaga ajratilgan maydonlar o'rtacha 138 gektardan 1367 gektarga ko'paydi¹⁰⁴. Ushbu sabablarga ko'ra, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmay, chetdan olib kelishga majbur bo'lgan. Uning natijasida, qtisodiyoti orqaga ketib, jamiyat hayotining barcha sohalarida «og'riqli nuqtalar» paydo bo'ldi. Viloyatda tovar tanqisligi kuchaydi.

A. Boltayevning yozishicha, XX asr 70-yillarida qo'riq o'zlashtirish va irrigatsiya Jizzax cho'llariga qaratiladi. Mirzacho'lni o'zlashtirishning keng tus olishi 1973 yil 29 dekabrda yangi - Jizzax viloyatini tuzish imkonini berdi. Viloyat hududidagi Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish boshlanganidan buyon bu yerda 23 ta paxtachilikka ixtisoslashgan davlat xo'jaligi barpo etildi, sug'oriladigan 130 ming ga yer qishloq xo'jalik iste'moliga kiritildi¹⁰⁵. Dashtni o'zlashtirish boshlanganining ikkinchi yiliyoq Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan, Jizzax viloyatining eski tumanlaridan 600 dan oshiqroq cho'lquvar oilalar ko'chib kelgan¹⁰⁶. Cho'ldagi o'zlashtirish va suv xo'jaligi bo'yicha qurilish ishlarini jadallashtirish uchun "Djizakstepstroy" ishlab chiqarish qurilish-montaj birlashmasi tashkil qilingan.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, O'zbekiston paxta yetishtiruvchi baza sifatida shakllantirilgan va paxta ekin maydonlari yildan-yilga ko'paytirib borilgan. Bu davrda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining ziddiyatli holati, xalq xo'jaligida asosiy e'tibor yangi yerlarni o'zlashtirish va paxtachilikning rivojlantirishga qaratilganligi ko'rsatilgan¹⁰⁷. Manbalarda yoritilishicha, 1966-1975 yillarda birgina Sirdaryo viloyatida 181,1 ming ga o'zlashtirildi va qishloq xo'jalik is-te'moliga kiritildi. To'qqizinchi besh yillik yakunida Mirzacho'lda yangi yerlar 280 ming ga ga yaqinni tashkil qilib, ularning bazasida 44 ta davlat xo'jaligi tuzildi. 1978 yil Mirzacho'ldagi jami 152,4 ming ga maydondan sug'oriladigan yerlar 114,5 ming ga (75,2%)ni, qo'riq va tashlandiq yerlar 29,7 ming ga (19,5%) ni tashkil etgan¹⁰⁸. Hududda eng ko'p o'zlashtirilgani ikkinchi va uchinchi terrasalar,

¹⁰³ Очерки истории коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент: “Узбекистан”, 1974. – С. 471, 768; Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том второй. 1938–1959. – Ташкент: “Узбекистан”, 1988. – С. 270–297.

¹⁰⁴ Normurodov A. XX asrning 40-80-yillarida paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari (Surxondaryo viloyati misolida) // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131, Jan., 2023. – В. 720.

¹⁰⁵ Болтаев А. Мирзачўл – Жиззах: ўтмиши ва бугуни (1900-2000 йиллар). – Тошкент: “Фан”, 2007. – 226 б

¹⁰⁶ Komilov O.K. History of mastering of mirzachol and jizzakh deserts (1950-1990) // Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies (Гуманитар тадқиқотлар), 2022, № 5 (65. – В.38-39..

¹⁰⁷ Турсунов С. Н. Қишлоқ аҳолисининг уй-жой маиший шароитларини яхшилаш муаммолари (1946–1965- йй). – Тошкент: “Фан”, 1994; б.; Холмўминов Ҳ.Ўзбекистон жанубий вилоятларида тарихий демографик жараёнлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2011.; Комилов О. Ўзбекистонда сўғориш тизими ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар. –Тошкент: “Академнашр”, 2016. –Б.324.

¹⁰⁸ Komilov O.K. History of mastering of mirzachol and jizzakh deserts (1950-1990) // Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies (Гуманитар тадқиқотлар), 2022, № 5 (65. – В.38-39..

Sho'ro'zak past qo'rig'i bo'lib, unda sug'ori-ladigan yerlar mos ravishda 7,6 ming (93,5 %), 47 ming (85,2 %) va 33,7 ming ga (89 %) bo'ldi. Yerlardan foy-dalanishning eng kam koeffitsiyenti Yettisoy va Sardoba pastqam qo'riqlarida bo'lib, bu yerlarda u tegishli ravishda 1,7 ming (16,8%) va 5,4 ming ga (37,7 %) dan iborat bo'ldi. O'tgan 30 yil mobaynida (1956-1986 yy.) Mirzacho'lda 360 ming ga qo'riq o'zlash-tirildi, yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan 60 ta zamonaviy davlat xo'jaligi barpo etilgan.

I. Mullajonov, V. Boboyev va U. Mirzaaliyevlarning tadqiqotlarida qishloq aholisining yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirilishi, bu joylarda ko'plab qishloqlar, posyolka va shaharchalar tashkil etilishi va uning oqibatlari yoritib berilgan¹⁰⁹. M.Yo'ldoshev, V. Stepanov, O.Verbitskayalarning tadqiqot ishlarida aholini ko'chirish muammolari va uni tashkil etishga bag'ishlangan masalalar yoritilgan¹¹⁰. Ularda ko'chirish vaqtida kelib chiqqan tartibsizliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotlarda 1960–1970-yillari qo'riq yerlarni o'zlashtirish jarayonida 1950-yillarda mavjud bo'lgan irrigatsiya inshootlari, drenaj, melioratsiya, uy-joy qurilishi bilan bog'liq bir qator muammolar qisman bartaraf etilganligi yoritiladi. Uni XX asr 60-yillarning o'rtalaridan Sirdaryo, 1974-yilda Jizzax massivlarida o'zlashtirish jarayoni avj olgan. Shimoliy va Janubiy Mirzacho'l kanallari va yuzlab suv shoxobchalari qurilgan. Bu esa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining shakllanishi, rivojlanishi va joylashuvi aholi joylashuviga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ayni paytda 1971–1975-yillarda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish rejasida Mirzacho'l, Qarshi, Surxon-Sherabod vohasi, Amudaryo havzasida yangi yerlar o'zlashtirilishi belgilab berilganligi ta'kidlanadi¹¹¹.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра. Archiv Orientalni, XXIV, 1956, №1.17с.
2. Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авеста ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008 – Б. 71.
3. Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней центральной азии. – Самарканд, 2009. – С. 47-49.
Страбон... VII, 3,12.
4. Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолитдин).

¹⁰⁹Бобоев В. Аҳоли миграцияси ва миллий маданиятлар равнаки. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1986. –Б.25.; Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолисининг миграцион алоқалари. –Тошкент: Ўзбекистон КПКМ бирлашган нашри, 1967. – Б.69.; Мирзаалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари мисолида, 1956-2020-йй.)... –121 б.

¹¹⁰Йўлдошев М. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда ишчи кучидан рационал фойдаланиш. –Тошкент: Ўзбекистон, 1982. –31 б.; Степанов В. Комплекс ўзлаштириш проблемалари // Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги. 10-сон. –Тошкент, 1985.. 56-58.; Вербицкая О.М. Плановая сельскохозяйственная переселения в РСФСР 1948-1956 // Вопросы истории. –Москва, 1986. –№12.–С.13.

Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 70

Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 70

5. Ранов В.А. Салтовская Е.Д. О работах Уратюбинского отряда в 1959 г. // ТИИ АН. Тадж. ССР. Т. XXXIV. – Душанбе, 1961. – С. 108-128; Негматов Н.Н., Салтовская Е.Д. О работах Ходжентского-Уструшанского отряда в 1960 г. // ТИИ АН. Тадж. ССР. Т. XXXIV. – Душанбе: Дониш, 1962. – С. 69-89. Негматов Н.Н. Историческо-географическое очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э // МИА. –М., 1953. –№ 37.,

6. Негматов Н.Н., Е.Д.Салтовская, Т.П.Кяткина. Изучение погребальных памятников кочевников на территории Уструшаны // АРТ. Сталинабад, 1961. – № VI (1958г), –С. 137-154;

7. Лившиц В.А. Юридические документы и письма (Согдийские документы с горы Муг. Вып. 2. – М.: Наука, 1962. – С.95; Пулатов У. История изучения Чиль-Худжры // Сообщения Государственного республиканского объединенного музея. Вып. 4. – Душанбе, 1966. – С. 59-60.

8. Марафиев С.Ш., Н.А Москаленко Архаические находки из Ходжаи Соф // АРТ. Вып. 21(1981).. – Душанбе, 1988. –С. 73-88., Мирбобоев А.К. Раскопки Куркатских склепов // АРТ. – Душанбе, 1980. –№ XV –С. 295-303., Мирбобоев А.К.. О работах на Куркатских склепов в 1978 г // АРТ. – Душанбе: 1984. -№ XVIII, -С. 195.

9. Авзалов Р.З, Самойлик П.Т. Майдонисайские погребения // АРТ. – Душанбе: 1982. –№ XVI, -С. 327-330.

10. Пардаев М.Ҳ. Шимоли-ғарбий Уструшона кишлок курилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // ЎММТ. 28 сон. – Самарканд, 1997. – Б. 142-148;

11. Пардаев М.Ҳ., Қалиятапа шаҳар ёдгорлик ва унинг стратиграфиясига доир айрим мулоҳазалар // ЎММТ 31- сон. – Самарканд, 2000. – Б. 119-130.

12. Пардаев М.Ҳ.Қадимги Жиззах воҳасида ўтрок деҳқонлар ва кўчманчи чорвадорлар маданияти // ЎММТ 33 сон. – Тошкент, 2002. – Б. 146-153

13. Грицина А.А. Изучение курганов в Сырдарьинской области // ИМКУ. Вып. 28. – Самарканд, 1997. – С.75-78; Ўша муаллиф. Уструшанские были. – Ташкент, 2000. – С. 198, 205-206 Ўша муаллиф. Кочевники в Уструшане (на примере изучения курганов в Сырдарьинской и Джизакской областях) // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек, 2005. – С.186-195.

14. Грицина А.А. Археологические исследования в бассейне Пшагарся // ИМКУ. Вып. 36. – Самарканд, 2008. – С.116.

15. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б. 73-78;

16. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б. 73-78;

17. Тўйчибоев Б.Б. Ўлка моддий маданияти тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2023. – 223 б;

18. Тўйчибоев Б.Б. Сирдарё ўлкаси қадимги ва ўрта асрлар даври тарихий географияси. – Тошкент, 2023. – 154 б;

19. Тўйчибоев Б.Б. Сирдарё ўлкаси қадимги ва ўрта асрлар даври тарихий географияси. – Тошкент, 2023. – 154 б

20. Қудратов С. Сирдарёдаги энг қадимги шаҳар // “Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақаларо сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)”. - Гулистон, 2016. – В. 103.

21. Сверчков Л.М. Средневековый Пшагар и пещера Йеча // ОНУ, Вып. 11-12. – Ташкент, 1999. – С.78; Сверчков Л.М. История изучения древних выработок Узбекистана (краткий обзор) // ИМКУ. Вып. 35. –Ташкент, 2006. – С. 119.

22. Сверчков Л. М., Бороффка Н. Краткий обзор археологических и геофизических работ в Зааминском районе. Археологические исследования в Узбекистане 2021 год. Вып. 14. – Самарканд, 2023.– С. 129-130.